



**ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING TA'LIM-TARBIYASIGA  
QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

**Andijon davlat pedagogika institute  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
101-guruh talabasi Fozilova  
Masturaxon Ravshanbek qizi**

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226615>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizdagi imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim siyosati, yaxshi hayot qurishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va ularning tarbiyasiga qo'yiladigan pedagogik talablar haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, korreksion, yo'l xaritasi, intellekt, ruhiy rivojlanish, individual, dunyoqarash.

*Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning  
sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga  
erishish, ularning o'z qobiliyatini va iste'dodini  
ro'yobga chiqarishi uchun barcha  
zarur sharoitlar yaratib berishdan iborat.*

**Sh.M.Mirziyoyev**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, manaviy-ma'rifiy rivojlanish jarayonida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ona vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning o'quvi, salohiyati, iste'dodi, mustaqil fikrlashiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham bilimdon, keng dunyoqarashga ega shaxslarni tarbiyalab yetishtirish vazifasi davlatimiz siyosatining ustuvor vazifasi darajasiga ko'tarildi. Jamiyatimizning bir qismi bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishi uchun qulayliklar yaratish davlatimizning alohida e'tiborida bo'lib kelmoqda. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 23-moddasiga binoan psixik va jismoniy muammolari bo'lgan bolalar va o'smirlarni ta'lim olishi va sog'ligini muhofaza qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida maxsus ta'lim muassasalari tashkil qilingan. Shu o'rinda inklyuziv ta'lim tushunchasiga alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim ingliz tilidan olingan bo'lib, “inclusive”, “inclusion”- “uyg'unlashmoq”, “uyg'unlashtirish”, “qamrab olmoq”, “qamrab olish” ma'nolarini bildiradi. Ya'ni, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'limning siyosati esa, turli xil ehtiyojli bolalarni ta'lim olishini qo'llaydi va yutuqlarga erishishga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga yordam beradi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limning bir qancha maqsad va vazifalari bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim tashkilotida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitini yaratish, ularning imkoniyatlariga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanish, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojini qondirish;

- ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- o'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovichning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

- 2020-2025-yillari xalq ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi 1-ilovaga muvofiq;
- 2020-2025-yillarda xalq ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020- 2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “ Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq;
- Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ohirgi paytda inklyuziv ta’lim tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda, ko‘pchilik bu tushunchani nogironligi bor bolalarning sog‘lom bolalar bilan birga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, bir maktabda, bir sinfda o‘qishi, bir partada o‘tirishi deb tushunadi xolos. “Aslida, faqat bu emas. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil bog‘cha muassasasida, bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi. Ya’ni imkoniyati cheklangan bola sog‘lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o‘qiy olishi kerak. Kam ta’minlangan oilaning farzandi kambag‘al oiladan bo‘lgani uchun ta’miratlanmagan maktabgacha ta’lim tashkilotiga yoki maktabga borishi kerak emas,” – deydi O‘zbekiston Nogironlar uyushmasi raisi Oybek Isoqov. Ushbu o‘rinda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning mazmun-mohiyatini eslab o‘tadigan bo‘lsak, “Qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’iy nazar, barcha bolalar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga hamda umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Alohida yordamga muhtoj bolalar sinfiga biz ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ham kiritishimiz mumkin, ya’ni, ularning bilish faoliyati – intellekti mantiqiy tafakkuri, idroki, xotirasi, ixtiyoriy diqqati, ish qobiliyati va boshqa xislatlariga birinchi o‘rinda markaziy nerv sistemasining kasalliklari natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashadi. Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklari birlamchi, aqliy zaiflik esa ikkilamchi hodisa bo‘lib hisoblanadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasi jihatidan ikki guruhga bo‘linadi:

1. Yengil nuqsoni bor bolalar – bular maxsus sharoitda 1-3 yil ta’lim-tarbiya olganlaridan keyin o‘qishni ommaviy maktabning tegishli sinfiga davom ettirishi mumkin.
2. Ruhiy rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar – bog‘cha yoshidan boshlab to maktabni bitirgunga qadar maxsus sharoitda o‘qitilishi kerak.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun mamlakatimizda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari internatlari, kuni uzaytirilgan maktablarda tenglashtirish sinflari tashkil etilgan. Ushbu masalalarda ta’lim, umumta’lim oddiy bog‘cha yoki maktab dasturi darsliklari asosida olib boriladi, himoyalaydigan davolovchi maxsus tartib tashkil etiladi. Ta’lim-tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, xotirasi, diqqati, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, bunday bolaga bilim berishda tarbiyachi uning o‘ziga xos individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori 2-ilovasining 5-bobiga muvofiq ixtisostirilgan ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini davlat ta’lim standartlariga muvofiq, vazirlik tomonidan belgilangan tartibda, o‘quv rejalari va dasturlari asosida, maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boriladi deb belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan “Takomillashtirish ilk qadam” o‘quv dasturi tasdiqlandi va nashr uchun tavsiya etildi. Ushbu o‘quv



dasturining 2-bobida ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim jarayoni (inklyuziv ta'lim) haqida quyidagicha keltirilgan:

- Davlat o'quv dasturi har bir bolaning ta'lim, tarbiya, rivojlanish, himoya va faol ishtirok etishdan teng foydalanish huquqlarini tan oladigan inklyuziv o'quv dasturi hisoblanadi.

- Davlat o'quv dasturi barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari, kuchli tomonlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim olish, rivojlanish va muloqotda qo'shimcha yordam ko'rsatishga mo'ljallangan.

- Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani ta'lim olishi va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash – bu Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, pedagog va mutaxassislari tomonidan tashkil etiladigan jamoaviy ish.

- Zarur bo'lganda, maktabgacha ta'lim tashkilotining jamoasi va rahbariyati tor mutaxassislarni jalb qilgan holda, bola rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolaning yakka tartibdagi rejasini yaratadi.

- Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, uning asosida individual-moslashtirilgan dastur ishlab chiqilishi mumkin. Bunday individual inklyuziv dasturda alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning ta'lim olishi, rivojlanishi, ishtiroki va farovonligi uchun barcha mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etadigan o'quv muhiti va o'qitish usullarini moslashtirish zarur.

Bularning barchasi pedagogning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida pedagog ta'lim oluvchilarga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi, shu bilan bir paytda u ta'lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. Yanada aniq qilib aytadigan bo'lsak, butun mashg'ulot jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bilan birga yengib o'tishda yordam beradi.

**Xulosa.** Bugungi kunda taraqqiyot, ta'lim juda tez rivojlanmoqda va o'zgarishlar yuz bermoqda. Deyarli har daqiqada mamlakatimizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlarni biz avvalo uzluksiz ta'limning eng quyi qismi hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimidan boshlashimiz kerak. Bu holatga esa birinchi navbatda pedagog hodimlarni ruhan tayyorlab olishimiz kerak. Pedagog hodimlar ko'pincha lider bolalar bilan ishlashga o'rganganlar, bu esa o'z navbatida bizning og'riqli nuqtalarimizdan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Sog'lom bolalar bilan bir xonada o'tirgan imkoniyati cheklangan bolalarning esa lider bo'la olish imkoniyati juda kam. Shu o'rinda bir savol tug'iladi, xo'sh bunga sabab nima? Ularning ta'lim jarayonida orqa qatorda qolishlari sababi shuki, ular eshitishga, ko'rishga va tushunishga boshqalardan ko'ra ko'proq kuch sarflashi kerak bo'ladi. Shunday holatlarni bartaraf etish, ya'ni, imkoniyati cheklangan bolalar ham sog'lom bolalar qatori tilni tushunishlari uchun, o'zlashtirishlari uchun tarbiyachi pedagoglarimizni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ham ishlashga o'rgatishimiz lozim deb o'ylayman. Zero, "Tabib tabib emas, boshidan o'tgan tabib" deganlaridek, aynan nogironligi bo'lgan bolalarning o'zlari va ularning ota-onalari o'z vaziyatlarini yaxshi bilishadi. Shunday ekan, Maktab ta'limi vazirligi tomonidan ularning fikrlari, takliflari qabul qilinishi kerak. Bunday bolalar ham sog'lom bolalar kabi qiylanmasdan ta'lim-tarbiya olishlari, kelajakda o'z yo'lini osonroq topishlari kerak. Shunda jamiyat ham imkoniyati cheklangan shaxslarga begonadek ajablanib qaramaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta'lim Esonova M.A. T.:2023. 5-bet
2. Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-sonli qarori

26.01.2024



3. <https://kun.uz/news/2021/03/18/inklyuziv-talim-uchun-5-yillik-reja-jamiyat-va-maktablar-imkoniyati-cheklangan-bolalarni-qabul-qilishga-tayyormi?ysclid=m815rr7m46282132666>

4. Pedagogika nazariyasi va tarixi Egamberdiyeva F, Toshov M. T.:2023 256-257-betlar

5. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida T.: 1999. Mamedov K.K, Shoumarov G.B, Podobed V.P.

6. “Takomillashgan ilk qadam” o‘quv dasturi T.:2022. 13-14betlar

7. Inklyuziv ta’lim fan o‘quv dasturi. Qodirova Z. 2023-2024.